

ZAMONAVIY YOSHLARDA KASBIY YO'NALISH MUAMMOLARI*Atavullayeva Maxsuda Axadilloeyvna**Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani**64-son umumiy o'rta maktabining psixologi***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada zamonaviy yoshlarda kasbiy yo'nalish bilan bog'liq muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va yechimlari yoritilgan. Kasb tanlash jarayoniga ta'sir etuvchi psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillar tahlil qilinib, yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ta'lim muassasalari va psixologlarning bu boradagi vazifalari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy yo'nalish, kasb tanlash, yoshlar, qiziqish, qobiliyat, motivatsiya, mehnat bozori, kasbiy maslahat, psixologik diagnostika, kasbiy rivojlanish.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yoshlarning kasb tanlash masalasi dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Kasb inson hayotining muhim qismi bo'lib, uning kelajakdagi muvaffaqiyati, moddiy farovonligi va shaxsiy qoniqishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli kasb tanlashda yoshlarning qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy yoshlarda kasbiy yo'nalish muammolarining asosiy sabablaridan biri kasblar haqidagi yetarli ma'lumotning mavjud emasligidir. Ko'plab o'quvchilar turli kasblarning mazmuni, talablari va istiqbollari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaydilar. Natijada ular kasb tanlashda ikkilanish yoki noto'g'ri qaror qabul qilishlari mumkin.

Yana bir muhim omil ota-onalar va atrofdagilarning ta'siridir. Ayrim hollarda yoshlar o'z qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib emas, balki boshqalarning istagi yoki tavsiyasiga ko'ra kasb tanlaydilar. Bu esa kelajakda kasbdan qoniqmaslik va motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, zamonaviy mehnat bozoridagi tezkor o'zgarishlar ham yoshlar uchun qiyinchilik tug'diradi. Ba'zi kasblarga bo'lgan talab kamayib, yangi kasblar paydo bo'lmoqda. Yoshlar esa ushbu o'zgarishlarga moslashish va kelajakda talab yuqori bo'ladigan kasblarni tanlashda qiynalishlari mumkin.

Kasbiy yo'nalishdagi muammolarni bartaraf etishda maktabning o'rni katta. Ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirish ishlari muntazam olib borilishi,

o'quvchilarga turli kasblar haqida ma'lumotlar berilishi va mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil etilishi zarur.

Maktab amaliyotchi psixologi kasb tanlash jarayonida o'quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi. Psixologik diagnostika va maslahatlar orqali yoshlarning o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashiga ko'maklashiladi. Kasbiy yo'nalishda oila va maktab hamkorligi ham muhim hisoblanadi. Ota-onalar farzandlarining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi, ularni mustaqil fikr yuritishga undashi va kasb tanlashda bosim o'tkazmasligi lozim.

Bugungi kunda yoshlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, ijodiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalar va raqamli savodxonlikni shakllantirish ham kasbiy muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta'limni rag'batlantirish muhim yo'nalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik – ishonchlilik sifatleri bilan birgalikda o'qituvchining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olg'a surganlar. O'z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin ta'kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarning yaxshi yashashida, faoliyatida to'g'ri kasb tanlashning ahamiyatini turli xil kasblarning insonga qo'yadigan talablarini; kasblar olami, kasblar shajarasi, O'zbekiston xalq xo'jaligidagi muhim kasblar, kasblar tasniflagichi; kichik mutaxassislar tayyorlash tizimi; kasblar, mehnat shartsharoitlari, vositalari, fani, maqsadi bo'yicha shajaralanishi, o'quvchilarni o'z qiziqish va moyilliklari, o'z xarakterining o'ziga xos xususiyatlarini, o'z nerv tuzilishi, psixikasi, o'z qobiliyati va ehtiyojlarini kasblar to'g'risida ma'lumot olish maktablarini ayrim kasb mehnat bozori talablari asosida ehtiyojning o'zgarib borishini, salomatligining tanlagan kasbiga mos kelishi, hududda joylashgan o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlashi; o'qishni davom ettirish imkoniyatlari. Kelgusi mavqeini bilishi zarur.

O'quvchilar kasblarni tahlil qila olishi; o'zlarining shaxsiy sifatlarini, qiziqishini va salomatlik darajalarini to'g'ri baholay olishlari, kasblarning insonga qo'yadigan talablari bilan o'zlarining individual xususiyatlarini taqqoslay olishlari, shaxsiy kasbiy rejalarini tuza olishlari zarur.

O'quvchilar Xalq xo'jaligi asoslari bo'limi bo'yicha xalq xo'jaligi sohalarini, xalq xo'jaligida ro'y berayotgan islohotlarni, bozor iqtisodiyoti talablarini, davlat

xususiy korxonalarini, kooperasiya, firma, shirkat, konsernlar, ularda ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, texnologik jarayonlar, mahsulotlarni tayyorlash bosqichlari, tabiatni ishlab chiqarishning zararli ta'siridan muhofaza qilish, mahsulot qiymatini arzonlashtirish yo'llari, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning davriyligini, maromli, oqimligi; ishlab chiqarishni rejalashtirish, irrigasiya va meliorasiya ishlarini; mehnat qonunchiligini.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning faqarolarining aqliy jihatdan yetukligi va axloqiy salohiyatining yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Asrlar davomida saqlanib kelinayotgan xalqning boy intellektual merosi hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida madaniyat, ma'rifat, fan-texnologiya va iqtisodiyotning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir.

Shu jumladan ta'lim, ilm-fan sohasida ham bir qator o'zgarishtirishlar kiritilmoqda. Bu o'zgartirishlar bevosita kelajak avlodning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, ko'nikma va malakalar asosida shakllantirish, ta'lim oluvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarning zaruriy hajmini berish, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Kasblar bo'yicha birlamchi bilim, ko'nikmalarni shakllantirish uchun professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshirilmoqda. Bu borada Respublikamizda "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi" tashkil etilgan. Bu markaz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko'zda tutilgan jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida o'quvchilarning o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va sog'liqlariga mos bo'lgan kasb-hunarlarni tanlashlariga ko'maklashadi. Ushbu markaz o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibga amalga oshirish, Kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlari holatini nazorat qilish, uni takomillashtirish choralarini ko'rish, tegishli dasturlar, me'yoriy hujjatlar va tavsiyalar ishlab chiqish; mamlakatimizdagi va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini umumlashtirish, ommalashtirish va hayotga tadbiiq etish; barcha bosqichdagi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis markazlari va ta'lim muassasalaridagi kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi yuklatilgan mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish; umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining hayotiy va kasbiy o'zligini anglash borasidagi ustuvor dasturlar va muammolar bilan ishlash respublika tashxis markazining eng muhim vazifalaridan hisoblanadi².

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunda ham o'quvchi yoshlarning kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda o'zlari tanlagan kasb va mutaxassislik asosida ta'lim olishi belgilab qo'yilgan. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlarga, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat e'tiborni yanada oshirish, o'quvchilarning kasbiy mahoratlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 7-8-9 sinfdan boshlab o'quvchilar o'rtasida interaktiv so'rovnomalar o'tkazish, kasb- hunarga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, o'quvchilar bilan birgalikda har oyda bir marta "kasblar olamiga sayohat" mavzusida maxsus kurslar olib borilishi to'g'risida aytilgan. Interaktiv so'rovnomalar orqali o'quvchilarning qiziqish sohalarini o'rganilib, tahlil qilinadi va shu asnoda kasbga yo'naltirib boriladi³.

Kasb tanlash – inson hayotidagi eng muhim qadamdir. Interaktiv so'rovnomalar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar kasb tushunchasi va kasblar haqidagi savollarga javob topadilar. Kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblari haqida tasavvurga ega bo'la boshlaydilar. Shuningdek, "kasb" so'zining ma'nosi insonlarning hunari, faoliyat turi va hayot kechirishi uchun manba bo'lib xizmat qiladigan mashg'ulot demakdir. Va bu mashg'ulot sevimli bo'lsa, inson albatta hayotidan zavq oladi. Kasb- bu ongli ravishda tanlangan faoliyat yo'lidir. O'quvchilarning tanlagan kasblari ularning qobiliyatlari, qiziqishlari, xarakter xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Chunki tanlangan kasb faqat ularning o'zlarigagina emas, balki jamiyatga ham foyda keltirishi kerak. Ye.A.Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Ta'rif quyidagicha " Kasb jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib, bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi",- bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktab muassasalarida faoliyat olib borayotgan amaliyotchi psixologlar maktab o'quvchilari bilan kasb tanlash, kasbga yo'naltirish borasida turli xil so'rovnomalar, masalan, " maktabdagi kasblar", " mening kelajagim" nomli so'rovnomalar, " kasb tiplarini aniqlash" savolnomalari, " kasblar zanjiri" kabi amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda. Shular bilan bir qatorda, maktab o'quvchilariga tanlangan kasbga shaxsning moyilligi, layoqati va zarur bo'lgan sifatlariga oid ma'lumotlar ham berib boriladi.

Yuqori sinf o'quvchilari bilan ham kasbga yo'naltirishga doir bir qancha mashg'ulotlar ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi. "o'quvchilar qiziqishlarini aniqlash" so'rovnomsini, " kasblar va insonning kasbga yaroqliligi", " maktab o'quvchisining kasbiy o'zligini anglash", " kasbga yo'naltirish alifbosi" kabi mashg'ulotlar maktab psixologlar tomonidan o'tkaziladi, qiziqish qobiliyatlari aniqlanib, o'quvchilarning har birlari bilan individual shug'ullanib kerakli tavsiyalar berib boriladi. " Mening kelajakdagi kasbim" mavzusida seminar-trening mashg'ulotlari olib boriladi. Seminar davomida o'quvchilarni kelajakda egallamoqchi

bo'lgan kasblarga yo'naltirib boriladi. O'quvchilarning kasblarga doir fikrlari tinglaniladi. Bundan tashqari o'quvchilarning kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan pedagogic-psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq kasblar bo'yicha kasb maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlari olib borilmoqda.

O'smirlarni o'rganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirish jarayonida ularning e'tiborligini ifodalaydigan materiallarni tavsiflaydigan holatlar kuzatiladi. Shuningdek kasbga qiziqishini shakllantirishni ta'minlaydigan intellektual komponentlarning tarkibiy qismlarini aniqlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

- Analiz va sintez;
- Diqqat va kuzatuvchanlik;
- Ajratishtirish va umumlashtirish;
- Klassifikatsiyalash va isbotlash

Hozirgi paytda, Harrison Assessments usuli bo'yicha kasbga yo'naltirish O'zbekistondagi birinchi va noyob kasbga yo'naltirish usuli bo'lib, u sizga farzandingiz uchun qaysi mutaxassislikni tanlashni va qaysi kuchli tomonlarini rivojlantirishni aniqlashga yordam beradi.

Bu test usuliorqali biz:

- O'zimizni kuchli tomonlarimizni tahlil qila olamiz;
- Biz uchun muvaffaqiyatli bo'ladigan kasblar ro'yxatini bila olamiz;
- Yetakchilik fazilatlarimizni tahlil qila olamiz;
- Hayotimizda oldindan aniq reja tuza olamiz;
- Umrimizni behuda sarflanadigan vaqti va mablag'laridan asrab qolamiz;
- Psixolog va mutaxassislar bilan individual suhbat va maslahat olamiz.

Kasbga yo'naltirish bu kasbiy o'zini o'zi aniqlashga yordam berishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Kasbga yo'naltirish maqsadi — shaxsning ma'lum bir kasbiy faoliyat yo'nalishiga moyilligini aniqlashdir. Ushbu amaliyot har bir bola iste'dodli va ma'lum bir sohada o'z iste'dodini tatbiq eta oladi degan fikrga asoslanadi. Kasbga yo'naltirishning turli xil usullari mavjud — kelajakdagi kasbni tanlashda duch keladigan o'spirin bilan, uning qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlarini muhokama qiladigan mutaxassislar bilan suhbatlar, shuningdek, standartlashtirilgan usullar mavjud, ularning natijalari kuchli va zaif tomonlarini tushunishga imkon beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy yoshlarda kasbiy yo'nalish muammolari ko'plab psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o'quvchilarga kasblar haqida to'liq ma'lumot berish, ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash hamda kasbiy maslahat xizmatlarini kuchaytirish zarur. To'g'ri tanlangan kasb yoshlarning kelajakdagi muvaffaqiyati va jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziev E.G. Yosh davrlari psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2017.
2. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. — Toshkent, 2018.
3. Karimova V.M. Kasb psixologiyasi. — Toshkent: Sharq, 2020.
4. Klimov E.A. Kasb tanlash psixologiyasi. — Moskva, 2018.
5. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. — Toshkent, 2019.
6. Raximov A.A. Kasbga yo'naltirishning psixologik asoslari. — Toshkent, 2021.